

**BO'LAJAK MOLİYACHILARDA FORSAYT KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA MINTAQA IQTISODIYOTI
KO'RSATKICHLARIDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

Boboyeva Surayyo Xamroyevna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistenti

surayyoboboyeva2230@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak moliyachilarda foresayt kompetentligini rivojlantirishda mintaqaviy iqtisodiyot ko'rsatkichlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi va mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi moliya yo'nalishi talabalarida istiqbolni oldindan ko'ra bilish, iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishni talab etmoqda. Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar hajmi, inflyatsiya darajasi, sanoat ishlab chiqarishi va eksport ko'rsatkichlari kabi mintaqaviy iqtisodiy indikatorlarning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar asosida talabalarning analitik, prognostik, strategik fikrlash hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot davomida kuzatish, tahlil, taqqoslash va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar mintaqaviy iqtisodiyot ko'rsatkichlariga asoslangan ta'lim texnologiyalarining bo'lajak moliyachilarda foresayt kompetentligini samarali shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Maqolada foresayt kompetentligini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari va metodik tavsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalarida moliya mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: foresayt kompetentligi, bo'lajak moliyachilar, mintaqaviy iqtisodiyot, prognozlash, strategik fikrlash, pedagogik imkoniyatlar, moliyaviy ta'lim.

Abstract. This article examines the pedagogical opportunities of using regional economic indicators in the development of foresight competence among future finance specialists. The increasing complexity of modern economic processes and the growing demand for highly qualified professionals in the labor market require finance students to develop the ability to anticipate future trends, analyze economic tendencies, and make strategic decisions. The study analyzes the didactic potential of regional economic indicators, such as gross regional product, investment volume, inflation rate, industrial production growth, and export performance, within the educational process. Furthermore, the mechanisms for developing students' analytical, prognostic, strategic thinking, and digital competencies through the use of these indicators are highlighted.

The research employed observation, analysis, comparison, and pedagogical modeling methods. The findings demonstrate that educational technologies based on regional economic indicators contribute significantly to the effective formation of foresight competence among future finance professionals. The article also proposes practical mechanisms and methodological recommendations for the development of foresight competence, which can enhance the quality of finance specialist training in higher education institutions.

Keywords: foresight competence, future financiers, regional economy, forecasting, strategic thinking, pedagogical opportunities, financial education.

KIRISH.

Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish, global moliyaviy beqarorlik va mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar moliya mutaxassislaridan nafaqat mavjud vaziyatni tahlil qilish, balki istiqboldagi iqtisodiy jarayonlarni oldindan ko'ra olish kompetentligini ham talab etmoqda [1]. Shu sababli bo'lajak moliyachilarda forsait kompetentligini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Forsait yondashuvi kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, strategik qarorlar qabul qilish va uzoq muddatli rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqishga xizmat qiladi [2]. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladigan prognozlash jarayoni strategik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir [3].

Mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlari talabalarga real iqtisodiy ma'lumotlar bilan ishlash, iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish, investitsion jarayonlarni baholash va hududiy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish imkonini beradi [4].

Shuningdek, zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimida rejalashtirish, monitoring, natijadorlikka asoslangan boshqaruv va raqamli nazorat mexanizmlaridan foydalanish moliyachilarning strategik fikrlash hamda prognozlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [9]. Mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishga oid tadqiqotlarda rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish, ishtirokchi byudjetlashtirish va raqamli monitoring tizimlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo'lajak moliyachilarda forsait kompetentligini rivojlantirishda mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiyotda noaniqlik va tezkor o'zgarishlarning kuchayishi mutaxassislardan kelajakdagi tendensiyalarni oldindan baholash hamda strategik qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu sababli

forsayt metodologiyasi ta'lim va boshqaruv sohalarida istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. M. Godet forsaytni kelajakni bashorat qilish emas, balki uni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik yondashuv sifatida tavsiflaydi[2]. J. Voros esa forsayt jarayonini ma'lumotlarni tahlil qilish, muqobil ssenariylarni ishlab chiqish va strategik harakatlarni rejalashtirish bilan bog'laydi[3].

Bo'lajak moliyachilarni tayyorlash jarayonida forsayt kompetentligini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki moliya mutaxassislari iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, investitsion risklarni baholash va strategik moliyaviy qarorlar qabul qilish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Shu nuqtai nazardan, mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlaridan foydalanish talabalarning iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va muqobil ssenariylar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish va bo'lajak moliyachilarning forsayt kompetentligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini aniqlash uchun kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish orqali forsayt yondashuvining nazariy asoslari o'rganildi, qiyosiy tahlil yordamida mavjud ilmiy qarashlar va kompetensiyaviy yondashuvlar solishtirildi. Statistik ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, pedagogik modellashtirish usuli asosida bo'lajak moliyachilarning forsayt kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. SWOT va PESTEL tahlillari iqtisodiy muhitning ichki va tashqi omillarini baholash, Delphi usuli ekspert fikrlarini umumlashtirish hamda ssenariyli rejalashtirish (Scenario Planning) esa ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini prognozlash uchun qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini forsayt metodologiyasi, strategik prognozlash va kompetensiyaviy yondashuvlarga oid ilmiy manbalar, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hamda moliyaviy boshqaruv sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi [5; 6; 7]. Mazkur manbalar bo'lajak moliyachilar faoliyatida zarur bo'lgan forsayt kompetentligining mazmuni va tarkibiy tuzilmasini aniqlash uchun nazariy asos vazifasini bajardi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlaridan foydalanish bo'lajak moliyachilarda forsayt kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Xususan, real makroiqtisodiy indikatorlarga asoslangan amaliy mashg'ulotlar talabalarning analitik fikrlashi bilan bir qatorda prognostik va strategik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Mazkur jarayonda foydalanilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning kompetensiyalarni shakllantirishdagi funksional yo'nalishlari 1-rasmda keltirilgan..

	Ko'rsatkich	Qiymati	Pedagogik ahamiyati
	YaIM o'sish sur'ati	6,5 %	Makroiqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish
	Investitsiyalar o'sishi	27,6 %	Investitsion risklarni baholash
	Inflyatsiya darajasi	9,8 %	Moliyaviy prognozlash
	Sanoat ishlab chiqarishi o'sishi	6,8 %	Hududiy rivojlanish istiqbollarini baholash
	Eksport hajmi o'sishi	8,4 %	Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili

1-rasm. Forsayt kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan [12]

Ushbu ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlari talabalarga real iqtisodiy jarayonlarni kompleks tahlil qilish, o'zgarishlar dinamikasini aniqlash hamda muqobil rivojlanish ssenariylarini shakllantirish imkonini berdi. Natijada, o'quv faoliyati davomida forsayt kompetentligining bir nechta o'zaro bog'liq komponentlari izchil rivojlandi

Tadqiqot davomida mintaqaviy iqtisodiy ma'lumotlar asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar talabalarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishi aniqlandi:

- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish;
- iqtisodiy trendlarni aniqlash;
- rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish;
- investitsion risklarni baholash;
- strategik qarorlar qabul qilish;
- raqamli tahlil vositalaridan foydalanish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu kompetensiyalar quyidagi tizimli tuzilma orqali namoyon bo'ldi.

Komponent	Mazmuni
 Analitik	Iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish
 Prognostik	Kelajak tendensiyalarini prognozlash
 Strategik	Uzoq muddatli qarorlar ishlab chiqish
 Raqamli	Excel, Power BI va statistik dasturlardan foydalanish
 Innovatsion	Yangi iqtisodiy yechimlar ishlab chiqish

2-rasm. Forsayt kompetentligining strukturaviy komponentlari va ularning iqtisodiy topshiriqlar bilan integratsiyasi

Manba: Muallif tomonidan Slaughter (1995), Godet (2001) va Voros (2003) ning forsayt yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, 1-rasmda keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar 2-rasmda aks etgan forsayt kompetentligining tarkibiy komponentlari bilan bevosita integratsiyalashgan holda ishlatilganini ko'rsatadi. Bu esa o'quv jarayonida nazariy bilimlarning amaliy tahlil va prognozlash faoliyati bilan uzviy bog'lanishini ta'minladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Godet tomonidan ishlab chiqilgan strategik forsayt konsepsiyasi bilan mos keladi. Muallif forsayt jarayonida statistik ma'lumotlar va ekspert baholaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [2]. Vorosning fikricha, forsayt jarayoni muhitni skanerlash, tahlil qilish, interpretatsiya qilish va kelajak ssenariylarini ishlab chiqish bosqichlaridan iborat bo'lib, ushbu jarayonlar iqtisodiy ma'lumotlar asosida samarali tashkil etilishi mumkin [3]. Slaughterning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida forsayt metodlaridan foydalanish talabalarning kelajakni oldindan ko'ra olish va strategik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi qayd etilgan [1].

Mahalliy byudjetlarni boshqarish va monitoring tizimlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda natijadorlikka asoslangan rejalashtirish, raqamli monitoring va ishtirokchi byudjetlashtirish mexanizmlari moliyaviy qarorlar sifatini oshirishi ta'kidlangan [9].

Shuningdek, mahalliy byudjetlar samaradorligi, kommunal xizmatlar faoliyati va hududiy moliyaviy boshqaruvga bag'ishlangan tadqiqotlar mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik rejalashtirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [10;11].

Natijalar kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi bilan ham mos kelib, mintaqaviy iqtisodiy ma'lumotlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi [8].

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlari bo'lajak moliyachilarda forsayt kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.
2. Mintaqaviy iqtisodiy ma'lumotlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning analitik, prognostik va strategik kompetensiyalarini rivojlantiradi.
3. Forsayt metodlari va iqtisodiy ko'rsatkichlarni integratsiyalash bo'lajak moliyachilarni mehnat bozori talablariga mos tayyorlash imkonini beradi.
4. Rejalashtirish, monitoring va raqamli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish talabalarning strategik fikrlash kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
5. Taklif etilgan pedagogik yondashuv moliyaviy ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy moliyachi kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Slaughter, R. A. *The Foresight Principle: Cultural Recovery in the 21st Century*. Melbourne: Adamantine Press, 1995.
2. Godet, M. *Creating Futures: Scenario Planning as a Strategic Management Tool*. London: Economica, 2001.
3. Voros, J. A generic foresight process framework. *Foresight*. 2003. Vol. 5(3). P. 10–21.
4. Porter, M. E. *Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Toshkent, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plam. Toshkent, 2025.
7. Bell, W. *Foundations of Futures Studies*. New Brunswick: Transaction Publishers, 2003.
8. Zeer, E.F. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. *Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii*. 2015. №8. B. 15–22.
9. Boboyeva, S.X. Mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish: rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. *Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali*. 2025. 2(9). B. 423–427.

10. Boboyeva, S.K. Assessing the Impact of Local Budgets on the Efficiency of Public Utility Services. *Journal of Applied Science and Social Science*. 2025. Vol. 15(11). P. 44–49.
11. Boboyeva, S.K. Improving the Management of Local Budget Expenditures. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*. 2025. Vol. 3(3). P. 91–96.
12. www.stat.uz

